



THE FACTOR OF GLOBALIZATION IN THE SPIRITUAL TRANSFORMATION OF YOUTH IN THE MIDDLE EAST COUNTRIES AND UZBEKISTAN

Axadjon Jo'rayev

Doctoral student at the Institute for Social and Spiritual Research
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: globalization, integration, Middle East, spiritual transformation, youth, radicalism, social media, mass culture.

Received: 25.09.25

Accepted: 26.09.25

Published: 27.09.25

Abstract: The article discusses the phenomenon of globalization, its impact on the lives of humanity, especially young people, the acceleration of economic, political, cultural and information processes on a global scale, and the features of the manifestation of integration processes in the countries of the Middle East and Uzbekistan.

YAQIN SHARQ DAVLATLARI VA O'ZBEKISTONDA YOSHLAR MA'NAVIY TRANSFORMATSIYASIDA GLOBALLASHUV OMILI

Axadjon Jo'rayev

Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti tayanch doktoranti
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: globallashuv, integratsiya, Yaqin Sharq, ma'naviy transformatsiya, yoshlar, radikalizm, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat.

Annotatsiya: Maqolada globallashuv fenomeni, uning insoniyat, ayniqsa, yoshlar hayotiga ta'siri, jahon miqyosida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot jarayonlarining jadallashuvi va integratsiyalashuv jarayonlarining Yaqin Sharq davlatlari va O'zbekistonda namoyon bo'lish xususiyatlari haqida so'z yuritiladi.

ФАКТОР ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ДУХОВНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ МОЛОДЕЖИ В СТРАНАХ БЛИЖНЕГО ВОСТОКА И УЗБЕКИСТАНЕ

Ахаджон Жураев

Докторант Института социально-духовных исследований
Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобализация, интеграция, Ближний Восток, духовная трансформация, молодежь, радикализм, социальные сети, массовая культура.

Аннотация: В статье рассматривается феномен глобализации, его влияние на жизнь человечества, особенно молодежи, ускорение экономических, политических, культурных и информационных процессов в мировом масштабе, а также особенности проявления интеграционных процессов в странах Ближнего Востока и Узбекистане.

Kirish. Globallashuv XXI asrda insoniyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, yoshlar qatlami bu jarayonning eng faol ishtirokchisi va ta'sirchan guruhi hisoblanadi. Yaqin Sharq davlatlari va O'zbekistonda demografik jihatdan yoshlar ulushining yuqoriligi ularning ma'naviy kamoloti, qadriyatlar va dunyoqarashida yuz berayotgan o'zgarishlarni tahlil qilishni talab etmoqda. Global axborot makoni, madaniy xilma-xillik va raqamli texnologiyalar orqali yoshlar ongida sodir bo'layotgan transformasiyalarni tushunish orqali milliy-ma'naviy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Shuningdek, Globallashuv jahon miqyosida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot jarayonlarining jadallashuvi va integrasiyalashuvini anglatishini inobatga oladigan bo'lsak, yuqorida bu jarayon, ayniqsa, yoshlar ongiga va ularning ma'naviy qiyofasiga kuchli ta'sir ko'rsatishini tahlil qildik. Yaqin Sharq mamlakatlari va O'zbekiston, qolaversa, dunyo hamjamiyati globallashuv ta'sirida turlicha yo'nalishlarda ma'naviy transformasiyalarga duch kelmoqda.

Tadqiqot natijalari shundan dalolat bermoqdaki, globallashuv yoshlar ma'naviyatidagi o'zgarishlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Yaqin Sharqdagi ko'pgina davlatlarda haligacha keskin siyosiy va diniy ta'sirlar ostonida bo'lgan yoshlar ongida bu jarayon og'riqli kechmoqda. O'zbekistonda esa davlat siyosatidagi ochiqlik va ma'naviy tarbiyaga qaratilgan e'tibor muvozanatni saqlashga qaratilgan.

Muhim xulosa shuki, globallashuvdan to'g'ri foydalanilsa, u yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ammo bu jarayonni boshqarmasdan qo'yish yoshlar ongida milliy qadriyatlar eroziyasiga, ma'naviy bo'shliqqa olib kelishi mumkin.

Globallashuv tamoyillarining yolar ongiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

- axborot erkinligi va raqamli texnologiyalar kengayishi;
- madaniyatlararo muloqot va gibril madaniyatlar vujudga kelishi;
- milliy qadriyatlar va global standartlar o'rtasidagi ziddiyat;
- transmilliy mafkuralarning tarqalishi;
- ta'lim va zamonaviy bilimlar tizimining ommaviylashuvi.

Yaqin Sharq mamlakatlarida globallashuv diniy-ma'naviy qadriyatlar bilan ziddiyatli muvozanatda rivojlanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat orqali G'arb qadriyatlari yoshlar ongiga singmoqda.

Bu esa ba'zida radikalizmga, shuningdek, identitet inqiroziga olib kelmoqda. Yaqin Sharq mintaqasi so'nggi o'n yilliklarda siyosiy inqirozlar, qurolli to'qnashuvlar va ijtimoiy beqarorliklar markaziga aylandi. Bu jarayonda yosh avlodning radikal g'oyalarga moyilligi, ularning ifratchi harakatlarga qo'shilishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, 2011 yilgi "Arab bahori"dan so'ng mintaqada yoshlar orasida siyosiy va diniy radikallashuv darajasi keskin oshgan. Bunday holatlarni ilmiy tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini aniqlash zamonaviy ijtimoiy-siyosiy tahlillar uchun muhim ahamiyatga ega.

Yaqin Sharq yoshlari orasida radikallashuv ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolar natijasi bo'lib, bu jarayon mintaqaviy barqarorlikka tahdid soladi. Davlat va xalqaro hamkorlikda barqaror siyosat orqali bu muammoni engib o'tish mumkin.

Yaqin Sharq davlatlarida kuzatilayotgan zamonaviy siyosiy-ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tahlil etib borish O'zbekiston uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Mintaqadagi siyosiy voqealiklar, jamiyatlarda yuz berayotgan o'zgarishlar, ziddiyalar, muhojirlar masalasi, yoshlar taqdiri, tibbiyot, ta'lim, ma'naviy hayotdagi jarayonlar analizi – O'zbekiston jamoatchiligini qiziqtiradigan, mavjud vaziyatni o'rganib, tegishli tahliliy xulosalar olishda, joriy muammolar echimini, topishda muhim bo'lgan vazifalardan. Ularning mazkur muammolarni hal etish borasidagi faoliyati va tajribalari O'zbekiston uchun milliy manfaatlar nuqtai nazaridan ham foydali.

Globallashuv yoshlar ma'naviyatida yangi imkoniyatlar bilan birgalikda xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda. Yaqin Sharq davlatlarida bu jarayon ko'proq ziddiyatli va siyosiy-diniy muammolar bilan bog'liq bo'lsa, O'zbekistonda esa globallashuv milliy qadriyatlarni saqlagan holda boshqarilmoqda. Har ikki hududda yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash dolzarb vazifadir.

O'zbekistonda globallashuv jarayoni milliy qadriyatlarni saqlagan holda kechmoqda. Davlat siyosatida "ma'naviyatli yosh" modeli ilgari surilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, xorijiy ommaviy axborot vositalari, kino va musiqalar yoshlar dunyoqarashini kengaytirmoqda, lekin ma'naviy tafakkurda g'arbcha stereotiplar paydo bo'lish xavfi mavjud. Zero, "hozirgi paytda madaniyatni siyosilashtirish bilan bog'liq murakkab jarayon sodir bo'layotganini qayd etib o'tish lozim. G'arbdagi ko'p mamlakatlar uchun bu odatiy hodisa: Evropa va AQShda ommaviy madaniyat davlat apparati, shuningdek, qudratli transmilliy kompaniyalar tomonidan moliyaviy va iqtisodiy jihatdan qattiq qo'llab-quvvatlanadi.

Xulosa. Milliy-ma'naviy qadriyatlar global madaniyat bilan raqobatlasha oladigan darajada zamonaviy shakllarda targ'ib etilishi lozim. Internet va media makonida milliy kontent ulushini oshirish kerak.

Yaqin Sharq va O'zbekiston tajribasini solishtirib, hamkorlikdagi ma'naviy loyihalar yo'lga qo'yilishi mumkin.

Yosh avlodni mustaqillik g'oyalari, milliy an'ana va qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularni har qanday zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdek hayotiy zaruratni amalga oshirishda asosiy bo'g'in bo'lgan ta'lim tizimining ma'naviy-axloqiy mazmunini oshirish dolzarbligicha qolmoqda. Zamonaviy va taraqqiy etgan davlatni barpo etishda fuqarolarimizning ijtimoiy faolligi, vatanparvarlik hissi hamda mas'uliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamaraimov, I. Globallashuv va milliy o'zlik muammolari. – Toshkent: Fan, 2019. – 215 b.
2. Jamshidov, A. Internet madaniyati va yoshlar ma'naviyati. // Falsafa va huquq. – 2021. – №3. – B. 88–91.
3. Al-Rasheed, M. A Most Masculine State: Gender, Politics and Religion in Saudi Arabia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
4. Gündüz, A. The Impact of Globalization on Youth Identity in the Middle East. – Middle East Review, Vol. 6, Issue 2, 2020. – pp. 33–48.
5. Yunusova, Sh.X. Globalizatsiya i duxovnie sennosti molodeji v Uzbekistane. // Obshchestvo i upravlenie. – 2022. – №4. – S. 57–63.
6. Qobilova, N. Globallashuv sharoitida yoshlar ongiga axborot ta'siri. // Yosh olimlar forumi. – 2023. – №2. – B. 45–49.
7. United Nations Development Programme (UNDP). Arab Human Development Report: Youth and the Prospects for Human Development in a Changing Reality. – 2016. URL: (<https://www.arab-hdr.org>)
9. Ministry of Youth and Sports Affairs, United Arab Emirates. UAE National Youth Strategy 2021. – Abu Dhabi, 2021. URL: (<https://youth.gov.ae/en/>)
10. Turdiev, M. O'zbekistonda yoshlar siyosati va ma'naviyat masalalari. – Toshkent: O'zbekiston, 2020. – 180 b.
11. The World Bank. Youth Unemployment in the MENA Region: Determinants and Challenges. – 2021. URL: (<https://www.worldbank.org/en/region/mena>).